O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Imtixon savollariga maktab metodbirlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo'shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtixon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarda imtixon biletleri 5 ta savoldan iborat bo'ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi beshinchi savollari o'qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metodbirlashmasi tomonidan tasdiqlanadi. Savol tuzishda umum ta'lim maktablarida maxsus kurs sifatida o'qitiladigan Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” nomli asarlari hamda “Dunyo dinlari tarixi” darsliklariga oid ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Beshinchi savol yuzasidan baholash mezonini ham maktab metodbirlashmasi tomonidan shakllantiriladi.

**1-bilet**

1. Bobil podsholigi
2. Ismoil somoniy maqbarasi
3. Amir Temur haqida ma'lumot bering
4. “Migratsiya” atamasiga izoh bering

**2-bilet**

1. Qadimgi Yunoniston davlati
2. Misr ehromlari haqida ma'lumot bering.
3. Alisher Navoiy hayoti va ijodi
4. “Rezidensiya” atamasiga izoh bering.

**3-bilet**

1. Qang' davlati
2. Semiramida osma bog'lari haqida ma'lumot bering.
3. A.S.Pushkin hayoti va ijodi
4. “Konvensiya” atamasiga izoh bering.

#### **4-bilet**

1. Franklar davlati
2. Ichan qal'a haqida ma'lumot bering
3. Al-Xorazmiy hayoti va ijodi
4. "Demobilizatsiya" atamasiga izoh bering.

#### **5-bilet**

1. Arab xalifaligi
2. Xudoyorxon saroyi (XIX asr oxiri) haqida ma'lumot bering
3. Mahmudxoja Bexbudiy hayoti va faoliyati
4. "Doktrina" atamasiga izoh bering.

#### **6-bilet**

1. Old Osiyo davlatlari
2. Sitorai Mohi Xosa
3. Maxmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyati
4. "Kapital" atamasiga izoh bering.

#### **7-bilet**

1. Ahamoniylar davlati
2. Ko'kaldosh madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati
4. "Urbanizatsiya" atamasiga izoh bering.

#### **8-bilet**

1. Qadimgi Kushon podsholigi
2. Buxoro arki haqida ma'lumot bering
3. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati
4. "Felyeton" atamasiga izoh bering.

#### **9-bilet**

1. Qadimgi Rim davlati
2. Myhammad Rahimxon madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Boborahim Mashrabning hayoti va faoliyati
4. "Tuzem" atamasiga izoh bering.

#### **10-bilet**

1. Vizantiya davlati
2. Sherdor madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Abu-Nasr Al-Farobiy hayoti va faoliyati
4. "Manifest" atamasiga izoh bering

#### **11-bilet**

1. Kiyev Rusi davlati
2. Tillakori madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va faoliyati
4. "Muvaqqat" atamasiga izoh bering.

#### **12-bilet**

1. Saljuqiylar davlati
2. Ulug'bek madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Abdulla Avloniyning hayoti va faoliyati
4. "Jadid" atamasiga izoh bering

### **13-bilet**

1. Mo'g'ullar davlati
2. Abdullaxon bandi haqida ma'lumot bering
3. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati
4. "Ispravnik" atamasiga izoh bering

### **14-bilet**

1. O'rta asrlarda Koreya
2. Abdullaxon madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Najmiddin Kubroning hayoti va ijodi
4. "Zemstvo" atamasiga izoh bering

### **15-bilet**

1. Eftallar davlati
2. Mir Arab madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Baxouddin Naqshbandiy hayoti va ijodi
4. "Duma" atamasiga izoh bering

### **16-bilet**

1. G'aznaviyalar davlati
2. Registon ansambli haqida ma'lumot bering
3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati
4. "Volost" atamasiga izoh bering

### **17-bilet**

1. Temuriylar davlati
2. Nodir Devonbegi madrasasi haqida ma'lumot bering
3. Isaak Nyuton hayoti va faoliyati
4. "Komendant" atamasiga izoh bering

### **18-bilet**

1. Chig'atoy ulusi
2. Labihovuz ansambli haqida ma'lumot bering
3. Rojer Bekon ilmiy ijodidagi asosiy g'oya
4. "Pristan" atamasiga izoh bering

### **19-bilet**

1. XVIII asrlarda Shimoliy Amerika
2. Dishan qal'a haqida ma'lumot bering
3. Ajiniyoz Qusibay o'g'li ijodidagi asosiy g'oya
4. "Kazak" atamasiga izoh bering

### **20-bilet**

1. XVI-XVII asrlarda Germaniya imperiyasi
2. Bog'doddaagi Bayt-ul hikma (Donishmandlar uyi) to'g'risida ma'lumot bering
3. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va faoliyati
4. "Admiral" atamasiga izoh bering

### **21-bilet**

1. XVI-XVIII asrlarda Xitoy
2. Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi
3. Mahmud Zamaxsharining hayoti va faoliyati
4. "Vitse" atamasiga izoh bering

### **22-bilet**

- 1.1800-1870-yillarda Buyuk Britaniya
2. Artemida ibodatxonasi
3. XIII asrda Marko Poloning hayoti va sayohatlari
4. “Armada” atamasiga izoh bering

### **23-bilet**

- 1.1800-1870-yillarda Usmonli turklar imperiyasi
2. Mustaqillik va ezgulik monumenti
3. Muhammad Narshaxiyning hayoti va faoliyati
4. “Burjuaziya” atamasiga izoh bering

### **24-bilet**

- 1.XVII-XVIII asrlarda Xiva xonligi
2. Toshkentdagi Mustaqillik maydonidagi “Motamsaro ona” monumenti
3. Xristofor Kolumbning hayoti va sayohatlari
4. “Xitobnoma” atamasiga izoh bering

### **25-bilet**

1. Qo’qon xonligi
2. Konstantinopoldagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov hayoti va faoliyati
4. “Patent” atamasiga izoh bering

### **26-bilet**

1. Buxoro amirligi
2. Qadimgi greklarning quyosh xudosi Geliosning haykali
3. Kamoliddin Bexzod hayoti va faoliyati
4. “Monarxiya” atamasiga izoh bering

### **27-bilet**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniya
2. Misrdagi Aleksandriya shahri yaqinidagi Aleksandr mayog’i
3. Mirza Ulug’bek hayoti va faoliyati
4. “Demokratiya” atamasiga izoh bering

### **28-bilet**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Angliya
2. “Qatag’on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi
3. Burxoniddin Marg’inoniyning hayoti va faoliyati
4. “Respublika” atamasiga izoh bering

### **29-bilet**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi
2. Samarqanddagi Ulug’bek rasadxonasi
3. I. Gasprinskiy hayoti va faoliyati
4. “Yabg’u xoqon” atamasiga izoh bering

### **30-bilet**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Italiya
2. Qo’qon xonligida Norbo’tabiy madrasasi
3. Al-Farg’oniyning hayoti va faoliyati
4. “Ixshid” atamasiga izoh bering



## KIMYO

### Soʻz boshi

2017-2018 oʻquv yili davomida kimyo fanidan umumtaʼlim maktablari oʻquvchilarining oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma, malakalarini aniqlash maqsadida 9-sinflarda yakuniy imtixon bilet savollariga **yozma** javob berish usulida oʻtkaziladi.

Biletlar kimyo oʻquv dasturi asosida 7,8,9-sinflarda olingan BKMLar yuzadidan tuzilgan. Bunda biletlar soni 30 ta boʻlib, har bir biletta 3 tadan savol va topshiriqlar berilgan. Birinchi va ikkinchi savol nazariy, uchinchi savol esa masala yechish yoki mashqlar bajarish boʻyicha topshiriqlardan iborat boʻladi.

Barcha savol-topshiriqlar umumiy oʻrta taʼlim maktablari darsligidagi mavzular asosida tuzilgan.

Birinchi va ikkinchi nazariy savol asosida anorganik kimyodan dastlabki tushunchalar, moddalar va ularning xossalari, kimyoning asosiy qonuniyatlari, kimyoviy reaksiyalar, atomlarining tarkibi, tuzilishi, elektronlarning orbitalarda taqsimlanishi, D. Mendeleyevning davriy qonuni va elementlarning davriy jadvali, anorganik moddalar orasidagi genetik bogʻlanish, elektrolitik dissotsiatsiyalanish, hamda organik birikmalarning tuzilishi, formulasi, nomlanishi, ishlatilishi haqidagi boshlangʻich tushunchalar haqidagi bilimlari, uchinchi savolda esa, oʻtilgan mavzular asosidagi masala va mashqlarni bajarish koʻnikma va malakalari aniqlanadi.

Nazariy savolda oʻquvchilar mavzularda berilgan qonunlarning taʼrifi, moddalarning formulasi, ularning hosil qilgan birikmalari, xossalari, tabiatda tarqalishi, ishlatilish sohalarini hamda ularga tegishli reaksiya tenglamalarini toʻgʻri ifodalashlari zarur.

Oʻquvchilar ishlarini baholashda toʻgʻri javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib oʻrtacha ball chiqariladi. Masalan:  $5+4+3=12:3=4$ .

Oʻquvchilar tomonidan berilgan javoblar quyidagi mezonlar asosida baholanadi.

#### Nazariy savollarni quyidagicha baholash mumkin

№	Baholash mezon	ball
1	Oʻquvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlar, tegishli modda va birikmalarning molekulyar, elektron va tuzilish formulasi, nomlari, uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalari hamda, tabiatda uchrashi, ishlatilish sohalari aniq izohlanib bexato boʻlsa;	5
2	Oʻquvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlar, tegishli modda va birikmalarning molekulyar, elektron va tuzilish formulasi, nomlari, uning fizik va kimyoviy xossalari va olinishiga oid reaksiya tenglamalarini toʻgʻri yozib, biroq tabiatda uchrashi yoki ishlatilish sohalarini aniq yoritib bera olmasa;	4
3	Oʻquvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlar haqida tushunchaga ega boʻlib, tegishli modda va birikmalarning molekulyar, elektron va tuzilish formulalarini toʻgʻri yozib, toʻgʻri nomlasa, uning	3

	kimyoviy, fizik xossalari, olinishini namoyon qiluvchi reaksiya tenglamalarini yozishda 2 ta xatoga yo‘l qo‘ysa;	
4	O‘quvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlarni, tegishli modda va birikmalarning molekulyar, elektron va tuzilish formulalarini, uning kimyoviy, fizik xossalari, olinishini namoyon qiluvchi reaksiya tenglamalarini bilmasa, ammo tabiatda uchrashi, ishlatilish sohalari haqidagina ma’lumot bera olsa;	2
5	O‘quvchi kimyoviy jarayon va qonuniyatlarni, tegishli modda va birikmalarning molekulyar, elektron va tuzilish formulalarini, uning kimyoviy, fizik xossalari, olinishini namoyon qiluvchi reaksiya tenglamalari, tabiatda uchrashini bilmasa, ammo ishlatilish sohasini qisman ayta olsa	1

**Masalalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi**

<b>№</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>ball</b>
1	Masalani berilish sharti, tegishli reaksiya tenglamalari to‘g‘ri va aniq yozilgan, eng qulay yo‘l bilan mantiqiy fikrlab yechilgan, matematik hisoblashlarda xatolarga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa	5
2	Masalani berilish sharti aniq yozilgan, tegishli reaksiya tenglamalari to‘g‘ri yozilgan, matematik hisoblash to‘g‘ri bajarilgan, ammo masala noqulay yo‘l bilan yechilgan bo‘lsa;	4
3	Masalani sharti aniq yozilmagan, tegishli reaksiya tenglamalari xato yozilgan, yechilishida javob to‘g‘ri emas, matematik hisoblashlarda xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa	3
4	Masalani berilish sharti yozilmagan, faqatgina tegishli reaksiya tenglamasi yozilgan, matematik hisoblashlarda xatolarga yo‘l qo‘yilgan, masala yechilmagan bo‘lsa	2
5	Masalani berilish shartini yozish uchun harakat qilingan, masalani yechish uchun boshqa amallar bajarilmagan bo‘lsa	1

**1-Bilet**

1. Elektrolitlar va noelektrolitlar NaOH, Ca(OH)<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, HCl, K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, NaHCO<sub>3</sub>-moddalarni elektrolitik dissosiasiyalanish reaksiya tenglamalarini yozing.
2. Alkanlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi.
3. 50 g 5 % li osh tuzi eritmasini tayyorlash.

**2- bilet**

1. Sulfat kislotaning kimyoviy xossalari va unga xos reaksiya tenglamalarni yozing.
2. Alkenlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi.
3. Rux gidroksidning olinishi, unga kislota va ishqorning ta’sirini tajribada ko’rsating, reaksiya tenglamalarni yozing.

**3-bilet**

1. Nitrat kislotaning kimyoviy xossalari reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.

2. Alkinlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi.
3. Alyuminiy gidroksidning olinishi, unga kislota va ishqorning ta'sirini tajribada ko'rsating, reaksiya tenglamalarni yozing.

#### 4- bilet

1. Kovalent bog'lanish va uning turlari misollar bilan izohlang.
2. Dien uglevodorodlar umumiy formulasi, gomologik qatori, tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi.
3. 0,5 M 200 ml H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash.

#### 5- bilet

1. Kalsiyning tabiatdagi birikmalari. Uning kimyoviy xossalarini reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.
2. Aromatik uglevodorodlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi.
3. Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, AlCl<sub>3</sub>, KCl eritmalarining mugitini aniqlang va xulosangizni bildiring.

#### 6- bilet

1. Magniyning tabiatdagi birikmalari. Uning kimyoviy xossalarini reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.
2. To'yingan bir atomli spirtlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, nomlanishi.
3. Xlorid kislota va xloridlarni aniqlashga doir sifat reaksiyalarni tajribada ko'rsating va izohlang.

#### 7- bilet

1. Nitrat kislotaning sanoatda va laboratoriyada olinishini reaksiya tenglamalari bilan izohlang.
2. Aldegidlarning umumiy formulasi, gomologik qatori, nomlanishi.
3. Sulfat kislota va sulfatlarni aniqlashga doir sifat reaksiyalarni tajribada ko'rsating va izohlang.

#### 8- bilet

1. Sulfat kislotaning sanoatda va laboratoriyada olinishi, reaksiya tenglamalar bilan izohlang.
2. To'yingan bir asosli karbon kislotalarning umumiy formulasi, gomologik qatori, nomlanishi.
3. Tarkibi 39,69 %-K, 27,87%-Mn, 32,46 %-O dan iborat moddaning formulasini aniqlang.

#### 9- bilet


1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



2. Murakkab efirlar, yog'lar tarkibi, ahamiyati.
3. Karbonat anhidrid, vodorod sulfid gazlarining zichligini, vodorod va havoga nisbatan zichligini aniqlang.


#### 10- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



2. Uglevodlar klassifikasiyasi, ahamiyati.
3. 70%  $^{24}\text{Mg}$  va 30%  $^{25}\text{Mg}$  izotoplar aralashmasining o'rtacha massasini aniqlang.


### 11- bilet



2. Uglevodorodlarning tabiiy manbalari. Neft va uning fraksiyalari.
3. Misning o'rtacha nisbiy atom massasi 63,54 ga teng.  $^{63}\text{Cu}$  izotopining foiz ulushini (%) aniqlang.

### 12- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



2. Yuqori molekulyar birikmalar, tarkibi. ahamiyati.
3. 3,42 g ishqoriy metal suv bilan reaksiyaga kirishganda 448 ml vodorod (n.sh.da) ajraldi. Metalni aniqlang.

### 13- bilet

1. Suvning qattiqligi, uni yumshatish usullari.
2. Rux xlorid, natriy karbonat, kaliy sulfat tuzlarining gidrolizlanish reaksiya tenglamalarini yozing va eritma muhitini aniqlang.
3. Tartib raqami 15,33, 51 bo'lgan elementlarning elektron formulasini yozing.

### 14- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.  

$$\text{Al} \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{AlCl}_3 \rightarrow \text{Al}(\text{OH})_3 \rightarrow \text{KAlO}_2$$

$$\begin{array}{ccccccc} \downarrow & \xrightarrow{\quad} & \uparrow & \xrightarrow{\quad} & \uparrow & \xrightarrow{\quad} & \text{Al}_2\text{O}_3 \\ & & & & & & \end{array}$$
2. Oksidlar tarkibi, toifalanishi, olinish usullari.
3. Tarkibi 3,7% - H, 37,8% - P, 58,5% - O dan iborat moddaning formulasini keltirib chiqaring.

### 15- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.  

$$\text{Cu}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CuCO}_3 \rightarrow \text{CuO} \rightarrow \text{Cu} \rightarrow \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{CuO} \rightarrow \text{CuSO}_4$$
2. Asoslar tarkibi, toifalanishi, olinish usullari.
3. Tajribada temir(II)-gidroksid olish va unga xlorid kislota ta'sirini ko'rsatish, izohlang.

### 16- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.  


$$\text{ZnS} \rightarrow \text{ZnO} \rightarrow \text{Zn} \rightarrow \text{ZnSO}_4 \rightarrow \text{Zn}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{ZnO} \rightarrow \rightarrow$$

$$\begin{array}{ccccccc} & & & & \searrow & & \\ & & & & \text{Zn}(\text{NO}_3)_2 & & \text{Na}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4] \end{array}$$
2. Kislotalar tarkibi, toifalanishi, olinish usullari.

3. 3,6g fosfin qancha hajmni (n.sh.da) egallaydi? Fosfinni vodorodga, havoga nisbatan zichligini aniqlang.

### 17- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.




2. Tuzlar tarkibi, toifalanishi, nomlanishi.

3. 20%li osh tuzi eritmasidan 400 g hosil qilish uchun 15 % li va 30 % li eritmalaridab necha g kerak.

### 18- bilet

1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi, oksidlovchi, qaytaruvchiga ta'rif bering. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiya tenglamasida barcha koeffitsientlar yig'indisini toping.




2. Suniy va sintetik yuvish vositalari.

3. Tajribada  $\text{Fe(OH)}_3$  olish, unga xlorid kislotaga ta'sirini ko'rsating, izohlang.

### 19- bilet

1. Ion almashinish reaksiyalarini molekulyar, to'liq ionli va qisqa ionli tarzda yozing.  $\text{Ba(NO}_3)_2 + \text{Na}_2\text{SO}_4 \rightarrow$



2. Kraxmalning tarkibi, tuzilishi, ishlatilishi. Kraxmalga xos sifat reaksiyasi.

3. Uch valentli metal xlorid tarkibida 34,42% metal va 65,58% xlor bor. Metalning ekvivalentini aniqlang.

### 20- bilet

1. Elektroliz va uning ahamiyati.

2. Aminokislotalar tarkibi, tuzilishi, nomlanishi, izomeriyasi.

3. 300 gr suvda 45 gr kalsiy xlorid eriydi. Tuzning eruvchanligini toping.

### 21- bilet

1. Azotning vodorodli birikmasi, olinishi, xossalari.

2. Ko'p atomli spirtlar tarkibi, ahamiyati.

3. Tarkibida 25 % ozon va noma'lum gazdan iborat aralashmaning geliyga nisbatan zichligi 9 ga teng. Aralashmadagi no'ma'lum gazni aniqlang.

### 22- bilet

1. Temir tarkibidagi birikmalari, olinish usullari.

2. Davriy qonun va davriy sistema.

3. Oksidlanish darajasi +4 bo'lgan elementning oksidi, tarkibida 30,5% kislorod bor. Elementni aniqlang.

### 23- bilet

1. Marganesning davriy sistemadagi o'rni, atom tuzilishi, olinish usullari.

2. Shisha va sement ishlab chiqarish.

3. 10 gr mis va mis (II) oksiddan iborat aralashmaga 20 % li 36,5 gr xlorid kislotaga eritmasi ta'sir ettirildi. Dastlabki aralashmadagi misning massa ulushini aniqlang.

### 24- bilet

1. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



2. Cho'yanning tarkibi, olinishi (Domna jarayoni)

3. Galogenlar tarkibini aniqlashga doir sifat reaksiyalarni tajribada ko'rsating va izohlang.

### 25- bilet

1. Asosiy mineral o'g'itlar tarkibi, ozuqa elementlari, mineral o'g'itlarning sinflanishi.

2. Po'lat tarkibi, olinishi, ahamiyati.

3. Karbonatlar tarkibini aniqlashga doir sifat reaksiyalarini tajribada ko'rsating va izohlang.

### 26- bilet

1. Eritmalar, eruvchanlik, eritma konsentrasiyalarini aniqlash.

2. Elementlarning valent imkoniyatlari va ularning oksidlanish darajasi. Misollar bilan izohlang.

3. 3,9 gr modda yondirilganda 13,2 gr CO<sub>2</sub> va 2,7 gr H<sub>2</sub>O hosil bo'ldi. Modda bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 39 ga teng. Reaksiya uchun olingan moddani aniqlang.

### 27- bilet

1. Biogen elementlar va ularning tirik organizmlardagi ahamiyati.

2. Qotishmalar, ularning turlari, ahamiyati.

3. 28 gr temirning korroziyalanishi natijasida necha gr "zang" hosil bo'ladi?

### 28- bilet

1. Metallar korroziyasi va uni oldini olish usullari.


2. Ishqoriy metallarning davriy sistemadagi o'rni, atom tuzilishi, tabiatdagi birikmalari.

3. 2 gr fosfor yondirilganda 4,58 gr fosfat angidrid hosil bo'ldi. Fosforning ekvivalentini aniqlang.

### 29- bilet

1. Atom electron qavatlarning tuzilishi.

2. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



3. 19,6 gr H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bariy xlorid bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini aniqlang.

### 30- bilet

1. Energetik pog'onachalarda elektronlarning taqsimlanishi.

2. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalar bilan ifodalang.



3. Alyuminiy va misdan iborat 10 gr qotishmaga xlorid kislotaga ta'sir ettirganda 6,72 l (n.sh.da) vodorod ajraldi. Qotishmaning foiz tarkibini aniqlang.

### Пояснение

В целях определения полученных знаний, умений навыков по химии учеников окончивших 9-х класс общеобразовательной школы в 2017-2018 учебном году аттестация будет проводиться в письменном форме.

Вопросы по аттестации контроля по химии для 9-х классов составлены на основании учебной программы.

Вопросы в целом охватывают всю учебную программу и от учащихся требуются дать на них полный исчерпывающий ответ. Правильные ответы на каждый вопрос оцениваются на основе 5 бальной системе. Оценки суммируются и выводится средний балл. Например:  $5+4+3=12:3=4$ .

#### Билет 1

1. Электролиты и неэлектролиты.  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca(OH)}_2$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaHCO}_3$  - напишите уравнения электролитической диссоциации этих реакции.

2. Общая формула, гомологический ряд, названия, строения и изомерия алканов.

3. Приготовьте 50 г 5 % раствор поваренной соли.

#### Билет 2

1. Напишите химические свойства и их уравнения реакции серной кислоты

2. Общая формула, гомологический ряд, названия, строения и изомерия алкенов.

3. Проведите лабораторную работу получение гидроксида цинка и воздействие на него кислотных и щелочных растворов. Напишите уравнения реакции.

#### Билет 3

1. Свойства азотной кислоты. Напишите уравнения реакции

2. Общая формула, гомологический ряд, названия, строения и изомерия алкинов.

3. Проведите лабораторную работу получение гидроксида алюминия и изучение его взаимодействия с кислотами и щелочами. Напишите уравнения реакции.

#### Билет 4

1. Объясните на примерах образование ковалентной полярной и неполярной связи.

2. Общая формула, гомологический ряд, названия, строения и изомерия диеновых углеводородов.

3. Приготовьте 0,5 М 200 мл раствор  $\text{H}_2\text{SO}_4$

#### 5- билет

1. Калий. Строения атома, нахождение в природе. Свойства важнейшие соединения калия. Напишите уравнения реакций химической свойств.

2. Общая формула, гомологический ряд, названия, строения и изомерия диеновых углеводородов.

3.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{AlCl}_3$ ,  $\text{KCl}$  Определите среда этих растворов и напишите свой мнение.

### Билет 6

1. Магний. Строения атома, нахождение в природе. Свойства важнейшие соединения магния. Напишите уравнения реакций химической свойств.
2. Общая формула, гомологический ряд и названия насыщенной одноатомные спирты.
3. Проведите лабораторную работу качественные реакции для соляной кислоты и хлоридов. Объясните и запишите уравнения реакции.

### Билет 7


1. Азотная кислота. Объясните и напишите реакция азотной кислоты получения при лабораторных условиях и в промышленности.
2. Общая формула, гомологический ряд и названия альдегида.
3. Проведите лабораторную работу определения наличие сульфат – иона в различных растворителях. Объясните и запишите уравнения реакции.

### Билет 8

1. Получения серной кислоты при лабораторных условиях и в промышленности. напишите уравнения реакций.
2. Общая формула, гомологический ряд и названия насыщенные одноатомные карбоновые кислоты.
3. Соединение содержит 39,69 %- калия, 27,87%- марганец и 32,46 %- кислорода. Определите молекулярную формулу соединения

### Билет 9


1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.



2. Сложные эфиры и жиры. Состав и значения жиры и сложных эфиров.
3. Определите плотность газов углекислого и сульфида водорода по водороду

### Билет 10


1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.



2. Классификация и значения углеводов.
3. Определите средняя масса смеси изотопов в составе 70%  $^{24}\text{Mg}$  и 30 %  $^{25}\text{Mg}$

### Билет 11


1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.



2. Природные источники углеводородов. Фракция нефтов.
3. Вычислите процентная доля изотопа  $^{63}\text{Cu}$ . Относительная средняя атомная масса меди равна 63,54 г

### Билет 12

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.





2. Состав и применение высокомолекулярных соединений.
3. Найдите металл, который при взаимодействии 3,42 г щелочного металла с водой, образующиеся 448 мл водорода (при н.у)

### Билет 13

1. Жесткость воды и способы ее смягчения.
2. Запишите уравнения реакции гидролиза следующих солей и определите среду образовавшегося раствора: хлорида цинка, карбоната натрия, сульфат калия.
3. Определите электронные формулы элементов с порядковым номером 15, 33, 51.

### Билет 14

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  

$$\text{Al} \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{AlCl}_3 \rightarrow \text{Al}(\text{OH})_3 \rightarrow \text{KAlO}_2$$

$$\downarrow \quad \quad \quad \uparrow \quad \quad \quad \uparrow \quad \quad \quad \swarrow \text{Al}_2\text{O}_3$$
2. Оксиды. Классификация, способы получения оксидов.
3. Соединение содержит 3,7 % - водорода, 37,8 % - фосфора и 58,5 % кислорода. Определите формулу вещества

### Билет 15

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  

$$\text{Cu}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CuCO}_3 \rightarrow \text{CuO} \rightarrow \text{Cu} \rightarrow \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{CuO} \rightarrow \text{CuSO}_4$$
2. Основания. Классификация, способы получения оснований.
3. Получение гидроксида железа - (II) его взаимодействия с соляной кислотой. Напишите уравнения реакции.

### Билет 16

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  

$$\text{ZnS} \rightarrow \text{ZnO} \rightarrow \text{Zn} \rightarrow \text{ZnSO}_4 \rightarrow \text{Zn}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{ZnO} \rightarrow \rightarrow$$

$$\swarrow \text{Zn}(\text{NO}_3)_2 \quad \quad \quad \swarrow \text{Na}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4]$$
2. Кислоты. Состав, классификация и способы получения кислоты. Сколько объем содержит 3,36 г фосфин при нормальных условиях? Определите плотность фосфина по водороду и воздуху.

### Билет 17

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  

$$\text{Cr}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{Cr} \rightarrow \text{CrCl}_2 \rightarrow \text{Cr}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CrO} \rightarrow \text{Cr}_2\text{O}_3 \rightarrow \text{Cr}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{Cr}(\text{OH})_3 \rightarrow \text{Na}_3[\text{Cr}(\text{OH})_6]$$

$$\downarrow$$

$$\text{NaCrO}_2$$
2. Соли. Классификация, состав, названия и способы получения соли.
3. Сколько граммов 15 % ной и 30 % ной раствор потребуется для получения 400 г 20 % -ной раствор поваренной соли.

### Билет 18




1. Какие реакции называются окислительно-восстановительной, дайте объяснения окислителем и восстановителем. Найдите сумму коэффициентов следующие окислительно-восстановительной реакции.  

$$\text{FeSO}_4 + \text{K}_2\text{CrO}_7 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{Cr}(\text{SO}_4)_3 + \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$$
2. Искусственные и синтетические волокно.

3. Получение гидроксида железа - (III) его взаимодействия с соляной кислотой. Напишите уравнения реакции.

#### Билет 19

1. Запишите уравнения следующих реакций в молекулярном, ионном и сокращенном ионном виде:



2. Углеводы. Состав, строения и применения крахмала.

3. В составе трехвалентного хлорид металла содержит 34,42% металл и 65,58% хлор. Найдите эквивалент металла

#### Билет 20

4. Электролиз и его практическое значение.

5. Аминокислоты. Содержание, строение, название и изомерия аминокислот.

6. 45 г хлорид кальция растворяется в 300 г воде. Найдите растворённость соли.

#### Билет 21

1. Получение и свойства водородное соединения азота.

2. Состав и значения многоатомные спирты.

3. Плотность по водороду смеси газов которые содержит 25 % озон и неизвестного газа равна 9. Определите неизвестного газа в смеси.

#### Билет 22

1. Способы получения железа и его соединения.

2. Периодический закон и периодическая система химических элементов.

3. Степень окисления оксид элемента равна +4. Составе оксида содержит 30,5 % кислорода. Найдите элемент

#### Билет 23


1. Расположение в периодической системе, строение атома и способы получения марганца

2. Производства стекла и цемента.

3. Найдите массовую долю меди в смеси которые при взаимодействии на смесь меди и оксида меди массой затрачено 10 г с 36,5 г 20 % ного раствора соляной кислоты. Определите массу (%) меди в первоначальной смеси.

#### Билет 24

1. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.



2. Состав и производства чугуна.

3. Проведите лабораторную работу качественные реакции для галогенов. Объясните и запишите уравнения реакции.

#### Билет 25

1. Основные минеральные удобрения. Состав, классификация питательные элементы и некоторые минеральные удобрения.

2. Состав и производства стали.
3. Проведите лабораторную работу качественные реакции для определения карбонатов. Объясните и запишите уравнения реакции.

#### Билет 26

1. Растворы, растворители и концентрация растворов.
2. Степени окисления.
3. При сгорании 3,9 г вещества получилось 13,2 г  $\text{CO}_2$  и 2,7 г  $\text{H}_2\text{O}$ . Плотность паров при сгорании вещества равна на 39. Определите вещества.

#### Билет 27

1. Биогенные элементы и их значение для живых организмов.
2. Сплавы. Типы и применения сплавов.
3. Сколько грамм ржавчины образуется при коррозии 28 г железа

#### Билет 28

1. Коррозия металлов и как защитить металлов от коррозии.
2. Расположение в периодической системе, строение атома и природные соединения щелочных металлов.
3. При сгорании 2 г фосфора получилось 4,58 г ангидрид фосфата. Найдите эквивалент фосфора.

#### Билет 29

1. Строение электронных слоев атомов.
2. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  
 $\text{Na} \rightarrow \text{NaOH} \rightarrow \text{NaHCO}_3 \rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{NaCl} \rightarrow \text{AgCl}$
3. При взаимодействии 19,6 г  $\text{H}_2\text{SO}_4$  с хлоридами бария образовалось осадок. Определите масса выпавший осадок.

#### Билет 30

1. Энергетические подуровни.
2. Напишите уравнения реакции в данной цепи превращений.  
 $\text{K} \rightarrow \text{KOH} \rightarrow \text{KHCO}_3 \rightarrow \text{K}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{K}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{BaSO}_4$
3. При взаимодействии 10 г смеси алюминия и меди с соляной кислотой при нормальной условия выделился водород. Определите процентный состав смеси.

## O‘ZBEK TILI

### 9-sinf

Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari o‘zbek tilida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olishi, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qilishi, jamoaviy hamkorlikda ishlay olishi, mavjud axborot manbalaridan foydalana olishi; ish qog‘ozlari bilan ishlay olishi; badiiy va san‘at asarlarini tushunib, ulardan ta‘sirlana olishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi; o‘rganilgan grammatik bilimlarga tayangan holda o‘zbek tilidagi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini bilish va amal qilishi; so‘zlarni o‘zaro bog‘lash vositalari, so‘z birikmasi, gap va gap bo‘laklari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi; o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan: tez aytish, topishmoq, maqol, masal, rivoyatlarni, o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘zbek adabiyoti namunalaridan berilgan parchalarni o‘qib, so‘zlab berishi, she‘rlarni ifodali o‘qishi va yoddan aytishi; o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayotiga oid lavhalarni, o‘zbek allomalari, olimlari, madaniyat ravnaqiga hissa qo‘shgan insonlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi; o‘zbek tilidagi muomala odobi, murojaat shakllarini, shuningdek, o‘zbek tilida xabarlar, xatlar yozish qoidalarini amalda qo‘llay olishi kerak bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, o‘zbek tili fanidan imtihon materiallari Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturida belgilangan materiallar asosida tayyorlandi. Imtihon biletleri 3 ta savoldan iborat bo‘lib, 1-savol: 9-sinf darsligida nutqiy mavzular bo‘yicha berilgan matnlardan biletta ko‘rsatilgan matnni o‘qib mazmunini so‘zlab berish yoki matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish; bunda o‘qituvchi tomonidan darslikda adabiy o‘qish uchun tavsiya etilgan matnlar, she‘rlar, mustaqil tanlangan matnlardan parchalar oldindan tayyorlab qo‘yiladi. O‘quvchi ko‘rsatilgan matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab beradi yoki matn yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan savollar yordamida mazmunini tushuntirib beradi. Bunda o‘quvchi matnni o‘zi bilgan qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan to‘ldirishi ham mumkin.

2-savol: grammatik topshiriq bo‘lib, bunda o‘quvchi o‘rganilgan leksik va grammatik materiallar asosida berilgan topshiriqni bajaradi. Ya‘ni nuqtalar o‘rnini kerakli qo‘shimchalar, so‘zlar bilan to‘ldirishi; so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishi, berilgan matndagi tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘rinli qo‘llashi, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llab gaplar hosil qilishi talab etiladi.

3-savol: erkin mavzuda suhbat tarzida bo‘lib, savollar o‘quvchilarning kundalik hayotida zarur bo‘lgan so‘zlashuv mavzulari bo‘yicha o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan savollar asosida o‘z fikrini bog‘lanishli bayon etadi yoki she‘rni yoddan ifodali aytib, mazmunini qisqacha izohlaydi. Jumladan, Ustozingizga ta‘rif bering, qanday kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘rasiz?, O‘zbekistonning mashhur sportchilaridan kimlarni bilasiz?, tejamkorlik deganda nimani tushunasiz? kabi mavzular orqali o‘quvchi ustoziga, kitob o‘qishga,

sportga va h.k. bo'lgan munosabati va kelgusi rejalari haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashishi mumkin.

**O'quvchilarning imtihondagi javoblari quyidagi me'yorlar asosida baholanadi.**

**5 ball:**

- o'quvchi tanlangan matnni o'qisa, (she'rni ifodali yoddan aytib bersa), matn mazmunini (asosiy mazmunini qamrab olgan holda) qayta hikoya qilsa, savollarga to'liq javob bersa, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitsa, matnni, she'rni ifodali o'qisa va matndagi so'zlarning lug'atini bilsa;

- berilgan grammatik topshiriqni tushunib to'g'ri bajarsa va izohlab bersa, imlo qoidalariga rioya qilgan holda so'z va so'z shakllarini xatosiz yoza olgan bo'lsa;

- suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida ijodiy yondashib o'zbek tilida o'zaro erkin muloqot qila olsa, fikrini o'zbek tilida izchil bayon eta olsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga to'liq javob bersa.

**4 ball:**

- o'quvchi tanlangan matnni o'qisa, (she'rni ifodali yoddan aytib bersa), matn mazmunini qayta hikoya qilsa, savollarga to'liq javob bersa, matnni, she'rni o'qishda so'zlarning talaffuzida xatoga yo'l qo'ysa;

- berilgan grammatik materialni tushunib to'g'ri bajarsa, so'z va so'z shakllarini qo'llashda xatoga yo'l qo'ysa;

- suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida o'zaro muloqot qila olsa, fikrini izchil bayon eta olsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bersa.

**3 ball:**

- o'quvchi tanlangan matnni o'qisa, (she'rni yoddan aytib bersa), matn mazmunini tushuntirishda qiynalsa, savollarga qisman javob bersa, she'rni yoddan aytib berish bilan cheklansa;

- berilgan grammatik materialni bajarishda qiynalsa, so'z va so'z shakllarini qo'llashda xatoga yo'l qo'ysa;

- suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob berishda qiynalsa.

**2 ball:**

- o'quvchi tanlangan matnni o'qisa, biroq mazmunini tushuntira olmasa, she'rni yoddan aytib berishda qiynalsa, savollarga qisman javob bersa;

- berilgan grammatik materialni bajarishda xatoga yo'l qo'ysa, so'z va so'z shakllarini to'g'ri qo'llay olmasa;

- suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, o'z fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera olmasa.

**1 ball:**

- o'quvchi tanlangan matnni o'qishda xatoga yo'l qo'ysa, she'rni yoddan aytib bera olmasa, savollarga qisman javob bersa;

- berilgan grammatik materialni bajara olmasa;

- suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu bo'yicha javob bermasa, qo'shimcha savollarga qisman javob bersa.

**0 ball:**

- o'quvchi biletidagi savollarga umuman javob bermasa.

**1-bilet**

1. Ismoil Somoniy maqbarasi matnini o'qing va mazmunini so'zlab bering.
2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.  
Kattalarni hurmat....., kichiklarga yordam.....
3. Oxirgi o'qigan kitobingiz haqida so'zlab bering.

**2-bilet**

1. Yaxshilik yerda qolmas matnini o'qing va mazmunini so'zlab bering.
2. Berilgan so'zlarning qarama-qarshi ma'nodagisini yozing.  
Chidamli \_\_\_\_\_, rostgo'y \_\_\_\_\_,  
tozalik \_\_\_\_\_, do'stlik \_\_\_\_\_,  
saxiylik \_\_\_\_\_, botirlik \_\_\_\_\_.
3. Sog'ligim – boyligim maqolining mazmunini tushuntirib bering.

**3-bilet**

1. Tabiat muhofazasi matnini o'qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Qanday ish qog'ozlarini bilasiz? Sababsiz o'qishga kelmasa qanday rasmiy xat yoziladi.
3. "Vatan ostonadan boshlanadi", deganda nimalarni tushunasiz. Gapirib bering.

**4-bilet**

1. Inson yaxshilik uchun yaratilgan matnini o'qing va mazmunini so'zlab bering.
2. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan olmoshlardan mosini tanlab yozing.  
\_\_\_\_\_ yaxshi tilaklarim sizga, Onajon. (jami, hamma, yalpi).  
\_\_\_\_\_ bir kishi uchun, bir kishi \_\_\_\_\_ uchun . (har kim, hamma, barcha).
3. Yaxshilik deganda nimani tushunasiz? So'zlab bering.

**5-bilet**

1. Burch matnini o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Berilgan gaplardagi olmoshlarni belgilash olmoshlari bilan almashtirib yozing.  
Biz tinchlik istaymiz. \_\_\_\_\_ .  
Biz bu kitobni o'qib chiqdik. \_\_\_\_\_  
Bu gap o'zimizga tegishli. \_\_\_\_\_
3. Kitob o'qishning fazilati haqida gapirib bering.

**6-bilet**

1. Sog'lom turmush tarsi matnini o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Berilgan so'zlarni bo'g'inga ajratib ko'rsating: Respublika, tinchlik, bunyodkorlik, muqaddas, ta'lim, jur'at, muvaffaqiyat, iste'mol, tejamkorlik, ko'pincha.
3. Mobil telefonining foydali va zararli tomonlarini tushuntirib bering.

### **7-bilet**

1. Pushaymonlik matnini o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Quyidagi so‘zlardan kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni alohida ustunga ajratib yozing. O‘zbekiston, o‘qituvchi, teatr, kompyuter, viloyat, tog‘, kitob, ko‘cha, avtobus, shifokor, shoir, gazeta, litsey.
3. O‘zbekistonning mashhur sportchilari haqida ma’lumot bering.

### **8-bilet**

1. Tabiat muhofazasi matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Ish qog‘ozlaridan —Tabriknoma matnini yozing.
3. Tejamkorlik deganda nimani tushunasiz? Fikringizni bildiring.

### **9-bilet**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan gapni tarjima qiling. Men tarixiy asarlarni o‘qishni yoqtiraman.
3. Quyidagi hikmatning mazmunini tushuntiring.  
Yaxshilik qo‘lingdan kelmasa,  
Yomonlik ham qilma

### **10-bilet**

1. Tabiat muvozanati - hayot muvozanati matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Yaxshilik, kamtar, burch, vijdon, baxillik so‘zlarining tarjimasini yozing.
3. Quyidagi maqolning mazmunini izohlang.  
Halol mehnat yaxshi odat,  
Berur senga saodat

### **11-bilet**

1. Xotira va qadrlash kuni matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Hajm-o‘lchovni bildiruvchi sifatlarni alohida ko‘chiring.  
Aqlli, shirin, yengil, katta, yoqimli, tor, kichik, qizil, yaxshi, uzun, xasis, qisqa, xursand, qadimgi, keng, ingichka, achchiq, qalin, kalta, oq, yashil, chaqqon, past, tinch, eski, qishki, ozg‘in, mehribon.
3. Alisher Navoiyning hikmatining mazmunini izohlang.  
Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitdi ranj ila,  
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

### **12-bilet**

1. Nima eksang, shuni o‘rsan matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan sifatlar yordamida so‘z birikmalari va gaplar tuzing.  
Chaqqon, xasis, kamtar, ozoda, mehribon, ishyoqmas, ozoda, yalqov.
3. Alisher Navoiy kim? U haqida nimalarni bilasiz?

### **13-bilet**

1. Barkamol avlod – kelajak poydevori matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Qavs ichiga har bir gap bo‘lagining so‘roqlarini qo‘yib chiqing.  
Bahorda(.....) hamma yoq (.....) ko ‘m-ko ‘k (.....)  
libosga (.....) burkanadi(.....)
3. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatining mazmunini izohlang.  
Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,  
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

### **14-bilet**

1. Mehmondorchilik odobi matnini o‘qing, matnni qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan to‘ldirib so‘zlab bering.
2. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplar hosil qiling. O‘rgandim, ko‘p, kitobdan, narsa. Gapirsang, ham, o‘ylab, o‘ynab, gapir. Izzatda, kattaga, bo‘l, hurmatda, kichikka.
3. Transportda yurish qoidalari deganda nimani tushunasiz? So‘zlab bering.

### **15-bilet**

1. San‘at matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Nuqtalar o‘rniga -ma, -may qo‘shimchalaridan mosini qo‘ying.  
Ishla ... gan – tishla ... di. Sana .... sakkiz dema. Bugungi ishni ertaga qo‘y....  
Ayt ... man dedimmi, ayt ... man.
3. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir deganda nimalarni tushunasiz. Izohlang.

### **16-bilet**

1. Ibn Sinoning maslahati matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan so‘zlarni ma‘nosiga ko‘ra turini aniqlang va ulardan biri ishtirokida gap tuzing. Gumbur-gumbur, g‘ir-g‘ir, taq-tuq, yalt-yult.
3. O‘zbekistonning tarixiy shaharlari haqida ma‘lumot bering.

### **17-bilet**

1. Abdurauf Fitrat matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan so‘zlarga -lik, -chilik qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib, avval -lik qo‘shimchali so‘zlarni, so‘ng -chilik qo‘shimchali so‘zlarni yozing.  
Dehqon, rassom, san‘atkor, shifokor, nonvoy, suv, baliq, gul, oshpaz.
3. O‘zbek xalq maqollaridan 3 tasini aytib, ma‘nosini tushuntiring.

### **18-bilet**

1. Yaxshilik yerda qolmas matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Nuqtalar o‘rniga mos olmoshlarni qo‘yib yozing.  
Nonushtani har doim men .... (o‘zim, o‘zing) tayyorlayman.  
U uyda bir .... (o‘zim, o‘zing, o‘zi) qolgan edi.  
Sinfimizning tozaligiga biz .... (o‘zimiz, har birimiz, barcha) javobgarmiz.
3. Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq joy nomlari haqida so‘zlab bering.

### **19-bilet**

1. San‘at matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.



2. Nuqtalar oʻrniga mos keladigan kelishik qoʻshimchalarini qoʻying.  
Uy.....derazasi, Vatan.... qaytish, kitob.... oʻqish, tabiat....zavqlanish,  
kun tartibi... amal qilish, uyqu... uygʻonish
3. A.Oripovning Adolat sheʼrini oʻqing va mazmunini tushuntirib bering.

#### **20-bilet**

1. Shukur Burhonov matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan gaplardagi kishilik olmoshlarini oʻzlik olmoshlari bilan almashtirib yozing.

Sen uy vazifasini bajardingmi? \_\_\_\_\_

Tadbirga sen boshlovchilik qilasan.\_\_\_\_\_

Sahna koʻrinishlarini biz ijro etamiz.\_\_\_\_\_

Sahnani bezatish bizga qoldi.\_\_\_\_\_

3. Ota-onangiz oldidagi burchingiz nimadan iborat? Soʻzlab bering.

#### **21-bilet**

1. Mehmondorchilik odobi matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Nuqtalar oʻrniga mos egalik qoʻshimchalarini qoʻying.  
Ona yurt... oltin beshig....
3. Koʻcha qoidalari deganda nimani tushunasiz? Soʻzlab bering.

#### **22-bilet**

1. Ahmad Fargʻoniy matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan gaplarga har yoki hech soʻzlaridan mosini qoʻyib yozing.  
..... faslning oʻz ziynati bor, ... faslning oʻz tarovati.  
Savob ishni ... kim ... kun qilishi kerak.  
Biz ... kimdan kam emasmiz.  
..... yerni qilma orzu, ... yerda bor toshu tarozu.
3. Mardlik deganda nimani tushunasiz? Soʻzlab bering.

#### **23-bilet**

1. Oʻzbekiston tabiati va iqlimi matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Nuqtalar oʻrniga kelishik qoʻshimchalarini qoʻying.  
Ertaga meva terish.... chiqamiz. Dars tayyorlash... ham, oʻynash.... ham oʻz vaqti bor.
3. Bugungi ishni ertaga qoldirma maqolining mazmunini tushuntirib bering.

#### **24-bilet**

1. Ibn Sinoning maslahati matnini oʻqing, mazmunini soʻzlab bering.
2. Sifatdoshli birikmalarni ajratib yozing.  
Kitobga yozilgan, kitob oʻqilgan, oʻqilgan kitob, bizning maktab, jihozlangan uy, qishloqda tugʻilgan.
3. Sogʻlik haqidagi maqollardan 2 tasini aytib bering va maʼnosini tushuntiring.

#### **25-bilet**

1. Dorbozlik matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Berilgan soʻzlar yordamida soʻz birikmalari tuzing.

Javon, stol, stul, divan, gilam, taom, non, ovqat,  
jigarrang, katta, qizil, yumshoq, mazali, issiq, shirin.

3. Tejamkorlik va isrofgarchilik soʻzlarining maʼnosini misollar bilan tushuntirib bering.

### **26-bilet**

1. Kasbning yaxshi-yomoni boʻlmas matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Respublikamizdagi viloyatlar nomini tartib bilan yozing.

3. Men kelgusida ... boʻlmoqchiman, chunki... orzularingiz haqida soʻzlab bering.

### **27-bilet**

1. Meʼmoriy obidalar matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Berilgan gaplarga mos savollar yozing.

- \_\_\_\_\_

- Maktabimizda shaxmat, basketbol, boleybol, futbol toʻgaraklari bor.

- \_\_\_\_\_

- Sport sogʻlom va baquvvat boʻlishga yordam beradi.

3. Doʻstimni hurmat qilaman, chunki... sababini misollar bilan tushuntiring.

### **28-bilet**

1. Oʻzbekiston milliy kutubxonasi matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Berilgan soʻzlarning sinonimini yozing va maʼnosini tushuntiring.

Ozoda, xushchaqchaq, toʻgʻrisoʻz, keksalik, chiroyli, bilimli.

3. Ilmsiz inson mevasiz daraxt deganda nimani tushunasiz. Izohlang.

### **29-bilet**

1. Orzular qanotida matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Nuqtalar oʻrniga mazmuniga mos kirish soʻzlarni qoʻying.

....., men uni ertaga koʻraman.

....., futbol jamoamiz musobaqada yutqazib qoʻydi.

3. Mehmon kutish odobini qanday tushunasiz. Misollar bilan soʻzlab bering.

### **30-bilet**

1. Yoshlikdagi orzular matnini oʻqing, matn yuzasidan savollarga javob bering.

2. Nuqtalar oʻrniga mos qoʻshimchalarni qoʻying.

..... Vatanimiz, ..... onam, .....kitobing, .... koʻchasi.

3. Haqiqiy doʻst qanday boʻlishi kerak? Tushuntirib bering.

## CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TILI

### 9-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun chet tillardan bosqichli (yakuniy) nazorat imtihonlari og'zaki nutq ko'nikmasini aniqlash yuzasidan o'tkaziladi. Bosqichli (yakuniy) nazorat imtihonlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning chet til ta'limi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli (yakuniy) nazorat imtihonlarini o'tkazish o'quv dasturlari asosida bir bosqichda amalga oshiriladi. Og'zaki topshiriq 25 ta biletdan iborat bo'lib, har bir biletda uchtadan topshiriq beriladi. Chet tillar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar va maktablar uchun maktab uslubiy birlashmasida kelishilgan holda qo'shimcha to'rtinchi topshiriq beriladi.

#### ***Og'zaki topshiriq – biletda ko'rsatilgan mavzular yuzasidan suhbat.***

Bunda o'quvchi mavzu yuzasidan o'z fikrini chet (ingliz, nemis va fransuz) tilda erkin bayon etishi kerak. O'quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatik va fonetik jihatdan to'g'ri bayon etilishi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bog'liqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda, so'z birikmalarining noto'g'ri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari bir gapning o'zida ikki va undan ortiq kuzatilsa, o'sha gap hisobga olinmaydi. O'quvchi mavzuni yoritib bera olmasa, o'qituvchi o'quvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Bilet asosida va qo'shimcha tarzda berilgan har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 3 ball, 2-savolga 5 ball, 3-savolga 4 ball qo'yilsa, baholar umumlashtirilib, o'rtacha ball chiqariladi.  $3+5+4=12:3=4$  ball. O'quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

#### **Og'zaki topshiriq bo'yicha baholash mezon**

<b>Baholashmezon</b>	<b>Ball</b>
